



## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA IJTIMOY HIMOYANI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK XULOSALAR

### INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING SOCIAL PROTECTION FOR POVERTY REDUCTION AND METHODOLOGICAL IMPLICATIONS FOR UZBEKISTAN

<sup>1</sup>Xamdamov Shavkat Komilovich

<sup>1</sup>TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası professorı, PhD. ORCID: 0009-0009-0409-9670, G-mail: [shavkatkhamdamov17@gmail.com](mailto:shavkatkhamdamov17@gmail.com)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning xorijiy tajribasi qiyosiy va tizimli jihatdan tahlil qilinib, uning alohida funksional elementlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqotning maqsadi xorijiy moliyalashtirish modellarini to'liq ko'chirish emas, balki mamlakatning budjet imkoniyatlari, mehnat bozori tuzilmasi va institutsional salohiyatiga mos elementlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, institutsional tahlil va deskriptiv usullardan foydalanilgan. Universal ijtimoiy himoya, majburiy ijtimoiy sug'urta, manzilli pul transfertlari, yagona ijtimoiy reyestr, shartli transfertlar, adaptiv ijtimoiy himoya, mobil to'lovlar, mikromoliya va integratsiyalashgan mahalliy xizmatlar fiskal yuk, badal bazasi, institutsional tayyorlik va manzillilik mezonlari asosida baholangan. Tahlil natijasida O'zbekiston uchun yagona ijtimoiy reyestr asosida yordam tayinlash, manzilli transfertlarni ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik xizmatlari bilan bog'lash, mobil to'lov kanallaridan foydalanish, individual "kambag'allikdan chiqarish xaritasi"ni joriy etish hamda natijadorlikka asoslangan monitoring tizimini rivojlantirish eng maqbul yo'nalishlar sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalari xorijiy tajribani funksional moslik tamoyili asosida bosqichma-bosqich milliy moliyaviy mexanizmga integratsiya qilish ijtimoiy himoyaning manzilliligi, moliyaviy barqarorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

*Eng.* - This article provides a comparative and systematic analysis of international experience in financing social protection for poverty reduction and substantiates the possibilities of adapting its functional elements to the conditions of Uzbekistan. The study aims not to replicate foreign financing models in their entirety, but to identify the elements that correspond to the country's fiscal capacity, labour market structure, and institutional capabilities. The research applies comparative analysis, a systems approach, institutional analysis, and descriptive methods. Universal social protection, mandatory social insurance, targeted cash transfers, unified social registries, conditional transfers, adaptive social protection, mobile payment systems, microfinance, and integrated local services are assessed according to fiscal burden, contribution base, institutional readiness, and targeting capacity. The findings indicate that the most appropriate measures for Uzbekistan include assigning social assistance through a unified social registry, linking targeted transfers with education, healthcare,

and employment services, expanding mobile payment channels, introducing individual poverty exit plans, and developing a results-based monitoring system. The study concludes that the gradual integration of selected foreign practices into the national financing mechanism, based on the principle of functional compatibility, can improve the targeting, financial sustainability, and effectiveness of social protection. The proposed methodological approach provides a framework for selecting and adapting international practices without mechanically transferring foreign institutional models.

**Kalit soʻzlar:****Keywords:**

❖ *kambagʻallikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani moliyalashtirish, moliyaviy mexanizm, xorijiy tajriba adaptatsiyasi, manzilli transfertlar, ijtimoiy reyestr, fiskal yuk, funksional integratsiya.*

❖ *poverty reduction, financing of social protection, financial mechanism, adaptation of international experience, targeted transfers, social registry, fiscal burden, functional integration.*

**Kirish.**

Kambagʻallikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash bugungi kunda nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki davlat moliyasining ham markaziy masalalaridan biri boʻlib qolmoqda. Buning sababi shundan iboratki, ijtimoiy himoya qanchalik keng va manzilli boʻlsa, u shunchalik koʻp barqaror moliyaviy resurs talab qiladi. Shu sababli savol koʻpincha “qancha yordam berish kerak” emas, balki “uni qanday va qaysi manbalardan barqaror moliyalashtirish mumkin” tarzida qoʻyiladi.

Global tasvir bu masalaning naqadar dolzarbligini koʻrsatadi. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, 1990-yilda ekstremal kambagʻallik darajasi 38 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilga kelib bu koʻrsatkich 8,4 foizgacha pasaygan [1]. Ammo keyingi yillarda jarayon inersiyasi sezilarli sekinlashdi. 2024-yil holatiga koʻra dunyoda qariyb 700 mln kishi, yaʼni aholining taxminan 8,5 foizi ekstremal kambagʻallik sharoitida yashayotgani qayd etilgan [1]. Bu raqamlar shuni koʻrsatadiki, iqtisodiy oʻsishning oʻzi kambagʻallikni avtomatik kamaytirmaydi va bu jarayon koʻpincha ijtimoiy himoyani moliyalashtirish mexanizmining samaradorligiga bogʻliq boʻladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi bu sohada juda boy, lekin bir-biriga oʻxshamaydi. Bir guruh mamlakatlar ijtimoiy himoyani asosan

solliqlar hisobidan moliyalashtiradi, boshqalari majburiy sugʻurta badallariga tayanadi, yana bir qismi esa manzilli transfertlar va raqamli reyestrlar orqali aniq ehtiyojmand guruhlarni qoʻllab-quvvatlaydi. Bu xilma-xillik tabiiy holat, chunki har bir model muayyan iqtisodiy salohiyat, budjet imkoniyati, mehnat bozori tuzilmasi va institutsional boshqaruv darajasi sharoitida shakllangan. Aynan shu sababli xorijiy tajribani oʻrganish zarurati nazariy qiziqishdan emas, balki amaliy ehtiyojdan kelib chiqadi.

Biroq, bu yerda jiddiy muammo yuzaga keladi. Tayyor modelni boshqa mamlakatdan toʻliq koʻchirib olib qoʻllash koʻpincha kutilgan natijani bermaydi. Masalan, norasmiy bandlik yuqori boʻlgan sharoitda faqat sugʻurta badallariga tayangan model aholining katta qismini qamrovdan tashqarida qoldiradi. Demak, masala modelni koʻchirishda emas, balki uning qaysi elementi milliy sharoitga mos kelishini aniqlashda boʻladi. Hozircha adabiyotlarda xorijiy modellar koʻp tavsiflangan boʻlsada, ularni tanlab moslashtirishning aniq mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Aynan shu boʻshliqlik ushbu mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

***Mavzuga doir adabiyotlar sharhi.***

Kambagʻallikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish masalasi iqtisodiy

fikrning turli maktablarida o'rganilgan, ammo bu o'rganish bir tekis bo'lmagan. Har bir maktab muammoning o'ziga yaqin bir qirrasini chuqurlashtirgan, qolganini esa fonga surgan. Shu sababli adabiyotni shunchaki sanab chiqishdan ko'ra, uni moliyaviy mexanizm nuqtai nazaridan saralash foydalibroq, ya'ni har bir yondashuv moliyalashtirish manbasi, manzillik va koordinatsiya masalalariga qanday javob bergani bo'yicha baholanadi.

Dastlabki nazariy asos klassik maktabda shakllangan. A. Smith bozorni eng samarali resurs taqsimlovchi deb hisoblagan [2], D. Rikardo undan kelib chiqib daromad taqsimotining iqtisodiy qonuniyatlarini asoslagan [3], T. Maltus esa davlat yordami mehnat rag'batini susaytirishi mumkinligidan ogohlantirgan [4]. Bu qarashlar budjet resurslarini taqsimlashda samaradorlik mezonini ilgari surdi, lekin manbalar tuzilishi va resurslarning manzilli yo'naltirilishi masalasini ochiq qoldirdi. Keyinchalik J.M. Keynes davlat xarajatlari va transfertlar orqali talabni rag'batlantirish hamda bandlikni kengaytirish mumkinligini ko'rsatib, ijtimoiy xarajatning makroiqtisodiy rolga e'tiborni qaratdi [5], biroq u ham mablag'ni aynan kimga va qancha yo'naltirish kerakligini aniq belgilamadi.

Muammoning mazmunini institutsional yo'nalish kengaytirdi. T. Shulst inson kapitaliga investitsiyani iqtisodiy o'sish omili sifatida asoslagan [6], G. Bekker bu g'oyani inson kapitali nazariyasiga aylantirgan [7], A. Sen esa kambag'allikni daromad tanqisligi emas, imkoniyatlardan mahrumlik sifatida qayta ta'riflagan [8]. Bu yondashuvlar ta'lim va sog'liqqa sarflashning uzoq muddatli samarasini asosladi, lekin bunday investitsiyalarni moliyalashtiruvchi budjet va sug'urta manbalari o'rtasidagi muvofiqlashtirish modelini bermadi. Zamonaviy davrda A. Banerji va E. Duflo tasodifiy nazorat tajribalari yordamida dasturlar samaradorligini empirik o'lchab, "kambag'allik tuzog'i" g'oyasini asosladi [9].

Moliyaviy mexanizmning o'zini tizimli o'rganish alohida yo'nalish bo'lib yetildi. G. Esping-Andersen ijtimoiy himoya rejimlarini uch tipga ajratib, davlat, bozor va oila o'rtasidagi moliyaviy mas'uliyat taqsimotini qiyoslashning metodologik asosini yaratdi [10]. M. Cichon va uning hammualliflari turli rivojlanish darajasidagi mamlakatlar uchun moliyalashtirish arxitekturasini taqqoslash uslubini ishlab chiqdi [11]. A. Fiszbein, R. Kanbur va R. Yemtsov manzillik darajasi va moliyalashtirish hajmining dastur samarasiga ta'sirini global ko'lamda baholadi [12]. S. Devereux va R. Sabates-Wheeler transformativ ijtimoiy himoya g'oyasini ilgari surib, ijtimoiy xarajatni investitsiya sifatida o'lchash yondashuvini taklif etdi [13].

O'zbekistonda ham keng tadqiqot bazasi shakllangan. D.A. Raxmonov ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini [14], Sh.Z. Davronov [15] va Z.E. Beknazarov [16] ijtimoiy sug'urtani tashkil etish hamda takomillashtirishni, D.A. Sholdarov esa ijtimoiy himoya moliyaviy mexanizmlarining konseptual asoslarini tadqiq etgan [17, 18]. M.X. G'aniev innovatsion iqtisodiyot sharoitida kambag'allikni qisqartirishni [19], U.A. Vosiqov [20] va Sh.N. Xayitov [21] fiskal siyosat va bandlik metodologiyasini ilmiy asoslagan.

Mavjud adabiyotni umumlashtirsak, manzara aniqlashadi: klassik maktab samaradorlikni, Keynes davlat moliyasining rolini, institutsional yo'nalish inson kapitalini, zamonaviy tadqiqotlar esa manzillikni chuqur ishlab chiqqan. Ammo ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va manzilli transfertlarni yagona integratsiyalashgan moliyaviy mexanizm doirasida muvofiqlashtirib boshqarish, uni manzillik va proaktivlik tamoyillari asosida kompleks baholash hamda O'zbekiston sharoitida qamrovni kengaytiruvchi moliyaviy strategiyani asoslash masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Aynan shu bo'shliq ushbu maqolaning ilmiy o'rnini belgilaydi.

### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Ushbu tadqiqotning vazifasi yangi statistik bog'liqlikni o'lchash emas, balki mavjud xorijiy moliyaviy modellarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslangan tarzda aniqlashdir. Shu maqsadga muvofiq to'rtta o'zaro to'ldiruvchi usuldan foydalanildi.

Birinchi va asosiy usul qiyosiy tahlildir. Manbada keltirilgan moliyaviy modellar va mamlakatlar tajribasi bir xil mezonlar asosida yonma-yon qo'yib o'rganildi. Muhim metodologik tanlov shundan iboratki, taqqoslash birligi sifatida butun "milliy model" emas, balki uning alohida funksional elementi olindi, masalan badal mexanizmi, manzillik mexanizmi yoki adaptiv kengayish vositasi. Yaxlit modellar mamlakatning fiskal va institutsional shartlariga qattiq bog'langani uchun funksional elementlar darajasidagi taqqoslash ko'chirib bo'ladigan va bo'lmaydigan jihatlarni ajratish imkonini beradi. Qiyoslash to'rtta mezon bo'yicha olib borildi: moliyalashtirish manbasi va fiskal yuk darajasi, badal bazasining kengligi, institutsional tayyorlik talabi hamda funksional ekvivalentlik.

Ikkinchi usul tizimli tahlildir. Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish bu bir-biridan ajralgan nafaqalar yig'indisi emas, balki manbalarni safarbar etish, ehtiyojmandlarni aniqlash, yordamni yetkazish va natijadorlikni monitoring qilish bosqichlari o'zaro bog'langan tizim sifatida qaraladi. Shu sababli har bir xorijiy element alohida emas, balki butun moliyaviy mexanizm zanjiridagi o'rni bilan baholandi.

Uchinchi usul institutsional yondashuvdir. Bu yondashuv moliyaviy mexanizmning samarasi faqat ajratilgan mablag' hajmiga emas, balki uni boshqaradigan institutlar sifatiga bog'liq degan tamoyilga tayanadi. Shu sababli har bir element O'zbekistonning mavjud institutsional infratuzilmasi, ya'ni "ijtimoiy reyestr", mahalla tizimi, "Inson" markazlari, raqamli to'lov va

mikromoliya tizimlari bilan moslik darajasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

To'rtinchi usul deskriptiv tahlildir. U xorijiy modellar, ulardagi moliyaviy vositalar va xalqaro institutlar faoliyatining mazmunini izchil tavsiflash hamda global kambag'allik tendensiyalarini bayon qilish uchun qo'llanildi. Bunda Jahon banki kabi manbalarning mavjud ko'rsatkichlari muammoni asoslash uchun ishlatildi, biroq yangi raqamlar hisoblab chiqarilmadi yoki o'ylab topilmadi.

Metodologiyaning cheklovi ochiq qayd etiladi. Moslik darajasi bo'yicha baholar sifatii va ekspert xarakterida bo'lib, ular nazariy asoslash orqali beriladi. Bu baholarni miqdoriy tasdiqlash uchun O'zbekiston bo'yicha milliy statistik ma'lumotlar kerak bo'ladi; bunday ma'lumot yetishmagan o'rinlarda baho "aniqlashtirish kerak" deb belgilanadi.


### ***Tahlil va natijalar muhokamasi.***

Tahlil to'rt asosiy yo'nalishda olib boriladi. Dastlab, global va mintaqaviy miqyosda kambag'allik darajasining o'zgarish tendensiyalari, uning ijtimoiy-iqtisodiy omillari hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlarining qamrovi va samaradorligi o'rganiladi. Bu bosqichda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan xalqaro yondashuvlar, ijtimoiy transferlar va himoya dasturlarining natijalari tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rib chiqilib, ularning ijtimoiy himoya tizimlari, manzilli yordam mexanizmlari, bandlikni rag'batlantirish siyosati hamda kambag'allikni kamaytirishdagi institutsional yondashuvlari umumlashtiriladi. Shundan so'ng rivojlanayotgan mamlakatlarning amaliyoti tahlil qilinib, cheklangan resurslar sharoitida ijtimoiy yordamni samarali tashkil etish, raqamlashtirish, moliyaviy inklyuziya va aholini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining afzalliklari va muammolari baholanadi. Yakuniy bosqichda esa World Bank, International Monetary Fund, United Nations Development Programme kabi xalqaro moliya

institutlari va rivojlanish tashkilotlarining kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or tajribalari, dasturlari va tavsiyalari o'rganiladi.

Har bir model va tajriba moliyalashtirish manbalari, manzillilik darajasi, institutsional samaradorligi, qamrov ko'lami, kuchli va zaif tomonlari, uzoq muddatli barqarorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalari nuqtai nazaridan kompleks baholanadi. Shu bilan birga, mazkur tajribalarning O'zbekistonning demografik xususiyatlari, mehnat bozori holati, fiskal


imkoniyatlari va ijtimoiy siyosat ustuvorliklariga moslashuv darajasi aniqlanib, ularni milliy sharoitga tatbiq etishning istiqbolli yo'nalishlari va amaliy mexanizmlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Natijada kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan samarali model va tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy hamda amaliy asos yaratiladi.



**1-rasm. Global ekstremal kambag'allik dinamikasi, 1990–2030-yillar (foizda va kishi soni) [22]**

Dunyo miqyosida ekstremal kambag'allik darajasi 1990-yildan keyin uzoq muddatli pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 1-rasmda keltirilgan dinamika shuni ko'rsatadiki, 1990-yilda 38,0 foiz (qariyb 1,9 mlrd kishi) bo'lgan ko'rsatkich 2019-yilga kelib 8,4 foizga (648 mln kishi) tushgan. Biroq 2020-yildan keyin pasayish sur'ati sekinlashgan: 2024-yilda daraja 8,5 foizni (qariyb 700 mln kishi) tashkil etgan, 2030-yilga esa 7,3 foiz (622 mln kishi) prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich 2030-yilgacha kambag'allikni 3 foizdan past darajaga tushirish maqsadidan ancha yuqori, ya'ni belgilangan maqsadga erishish xavf ostida [22].


Mintaqaviy kesim global rasmning bir tekis emasligini ko'rsatadi (2-rasm). Sharqiy Osiyo va Tinch okeani, Yevropa va Markaziy Osiyo hamda Lotin Amerikasi va Karib havzasida daraja nisbatan past va barqaror pasaymoqda. Aksincha, Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika, G'arbiy va Markaziy Afrika hamda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afg'oniston va Pokiston mintaqalarida kambag'allik yuqori saqlanmoqda. Bu kambag'allik faqat daromad yetishmasligi emas, balki iqtisodiy o'sish sifati, mehnat bozori imkoniyatlari, ijtimoiy himoya qamrovi va siyosiy-iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi.



**2-rasm. Mintaqaviy ekstremal kambag'allik tendensiyalari, 1990–2026-yillar (foizda) [22]**

2-rasm 2015 va 2023-yillarda aholining ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishini daromad guruhlari va mintaqalar kesimida ko'rsatadi. Ma'lumotlar shuni bildiradiki, qamrov jahon bo'yicha o'sgan bo'lsa-da, mamlakatlarning daromad darajasi va institutsional salohiyatiga qarab keskin farqlanadi. Yuqori daromadli mamlakatlarda

qamrov universalga yaqinlashgan, past daromadli mamlakatlarda esa aholining katta qismi ijtimoiy himoyadan chetda qolmoqda. Bu holat moliyaviy resurslarni umumiy nafaqa tizimi orqali emas, balki ehtiyojmand guruhlarni aniqlovchi raqamli reyestrlar va manzilli moliyalashtirish orqali taqsimlash zarurligini asoslaydi.



**3-rasm. Jahonda aholini ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishi darajasi, 2015 va 2023-yillar (foizda) [23]**

Shvetsiya namunasidagi keng qamrovli farovonlik modeli asosan progressiv soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi. Manzillilik bu yerda past, chunki yordam universal. Kuchli jihati daromad tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda; ijtimoiy xarajat inson kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi. Cheklovi yuqori fiskal yuk va kuchli institutlarni talab qilishidir. O'zbekiston uchun bu modelni to'liq joriy etish emas, balki bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun bazaviy kafolatlarni bosqichma-bosqich kengaytirish elementi maqbul.

Germaniyaning ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modeli majburiy sug'urta badallariga tayanadi. Manzillilik o'rta, asosiy bog'liqlik mehnat hissasiga mutanosib. Kuchli jihati mehnat bilan bog'liq risklarni barqaror moliyalashtirish va kasb-hunar tayyorlash tizimida; cheklovi norasmiy bandlik yuqori bo'lganda qamrovning torayishidir. O'zbekiston uchun sug'urta mexanizmini kengaytirish elementi mos, lekin u bandlikni rasmiylashtirish bilan birga olib borilishi shart. Janubiy Koreya modeli esa kambag'allikni ta'lim, sanoatlashuv va bandlik orqali kamaytirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston uchun ta'lim, kasb-hunar, qishloq infratuzilmasi va raqamli moliyaviy xizmatlar elementi yuqori darajada mos keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurash innovatsion moliyaviy vositalar orqali olib borilmoqda. Xitoy har bir kambag'al oilaga individual yondashuv va "Dibao" minimal daromad kafolatiga tayanadi; manzillilik juda yuqori. Braziliya (Bolsa Família, Cadastro Único) va Meksika (Prospera) shartli pul transfertlarini ta'lim va sog'liq shartlari bilan bog'laydi, bu kambag'allikning avloddan-avlodga o'tishini cheklaydi. Bangladesh mikromoliya va ayollar tadbirkorligiga, Keniya mobil moliya (M-Pesa) orqali to'lovlarni yetkazishga, Indoneziya va Malayziya esa islomiy moliya vositalariga (sukuk, zakot, vaqf) tayanadi.

Bu vositalar uchta vazifani bajaradi: ijtimoiy yordamni aniq manzilga yetkazadi, kambag'al oilani mustaqil daromad manbaiga olib chiqadi va ta'lim, sog'liq hamda bandlik orqali kambag'allikning takror ishlab chiqarilishini cheklaydi. O'zbekiston uchun moslik yuqori: mikrokreditni kasb-tayyorlash bilan birga tashkil etish, ijtimoiy to'lovlarni mobil hamyon orqali yetkazish, individual "kambag'allikdan chiqarish xaritasi" yuritish hamda islomiy moliya mablag'larini kambag'allik dasturlari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish mumkin.

Xalqaro institutlar mustaqil model emas, balki moliyaviy va institutsional manba bo'lib xizmat qiladi. Jahon banki infratuzilma va ijtimoiy himoyani raqamlashtirish loyihalarini moliyalashtiradi; Xalqaro Valyuta Jamg'armasi makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy xarajatlar barqarorligini ta'minlash tamoyilini ilgari suradi; BMT Taraqqiyot Dasturi ko'p o'lchovli kambag'allik metodologiyasini beradi; Xalqaro Mehnat Tashkiloti munosib mehnat va ijtimoiy himoya minimumlarini standartlashtiradi; Osiyo taraqqiyot banki mintaqaviy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, energetika xavfsizligini mustahkamlash va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshiradi. Ushbu institut tomonidan taqdim etiladigan mablag'lar nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, balki hududlararo tafovutlarni qisqartirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Islom taraqqiyot banki esa shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llab, foizsiz kreditlar, sheriklikka asoslangan investitsiyalar hamda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlaridagi dasturlar aholining ijtimoiy himoyasini

kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik samaradorligi faqat jalb qilingan mablag'lar hajmi yoki amalga oshirilgan loyihalar soni bilan emas, balki ularning mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, institutsional islohotlari va milliy ustuvor yo'nalishlari bilan qanchalik uyg'unlashgani orqali baholanadi. Eng muhimi, mazkur loyihalarning aholi farovonligi,

daromadlar o'sishi, bandlik darajasining oshishi, infratuzilma sifati va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga ko'rsatgan real ta'siri hisoblanadi. Shu sababli xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik natijadorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy inklyuzivlik, hududiy rivojlanish, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini mustahkamlash kabi mezonlarga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur.

1-jadval

**Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish xorijiy modellarining qiyosiy tavsifi\***

Model yoki mamlakatlar guruhi	Asosiy mexanizm	Kuchli jihati	Cheklovi	O'zbekiston uchun metodologik xulosa
<b>Universal model (Skandinaviya mamlakatlari)</b>	Keng qamrovli xizmatlar, nafaqalar va bazaviy ijtimoiy kafolatlar	Yuqori qamrovni ta'minlaydi, daromadlar tengsizligini kamaytiradi, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi	Katta fiskal xarajatlarni talab qiladi, kuchli institutlar va yuqori soliq intizomisiz samarali ishlamaydi	Bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun bazaviy ijtimoiy kafolatlarni bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq
<b>Ijtimoiy sug'urta modeli (Germaniya, Fransiya, Yaponiya)</b>	Pensiya, ishsizlik, kasallik va onalik bilan bog'liq risklarni sug'urta badallari orqali qoplash	Risklarni barqaror moliyalashtirish imkonini beradi, davlat budjeti yukini kamaytiradi	Norasmiy bandlik darajasi yuqori bo'lsa, aholining katta qismi qamrovdan tashqarida qolishi mumkin	Sug'urta tizimini mehnat bozorini rasmiylashtirish va sug'urta badallari bazasini kengaytirish bilan uyg'un rivojlantirish zarur
<b>Manzilli transfertlar modeli (Braziliya)</b>	Yagona ijtimoiy reyestr asosida shartli yoki shartsiz pul transfertlarini ajratish	Resurslardan samarali foydalanadi, yordamni eng ehtiyojmand qatlamlarga yo'naltiradi, ta'lim va sog'liq natijalarini rag'batlantiradi	Reyestr ma'lumotlari sifati past bo'lsa, qamrov xatolari yuzaga keladi	"Ijtimoiy reyestr" asosida yordamni bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan integratsiyalash lozim
<b>Yagona to'lov modeli (Buyuk Britaniya)</b>	Turli nafaqa va ijtimoiy yordamlarni yagona to'lov tizimiga birlashtirish	Tizimni soddalashtiradi, ma'muriy xarajatlarni qisqartiradi, nazoratni kuchaytiradi	O'tish davrida ayrim guruhlarning daromadi kamayishi mumkin, yuqori raqamli savodxonlik talab etiladi	Nafaqa va xizmatlarni yagona reyestr asosida boshqarish, hududiy va ijtimoiy tafovutlarni hisobga olish zarur
<b>Integratsiyalashgan mahalliy xizmat modeli (Chili)</b>	"Bir darcha" tamoyili, yagona reyestr va individual ijtimoiy kuzatuv tizimi	Pul yordami, maslahat, ijtimoiy xizmat va bandlik dasturlarini mahalliy darajada birlashtiradi	Mahalliy boshqaruv salohiyati sust bo'lsa, xizmatlar sifati hududlar bo'yicha farqlanishi mumkin	"Inson" markazlari va mahalla tizimi faoliyatini yagona moliyaviy hamda boshqaruv mexanizmi bilan bog'lash maqsadga muvofiq
<b>Adaptiv ijtimoiy himoya modeli (shoklarga moslashuvchi tizimlar)</b>	Inqiroz, pandemiya yoki tabiiy ofatlar davrida tez kengayadigan ijtimoiy himoya tizimi; reyestr, raqamli to'lovlar va zaxira fondlaridan foydalanish	Favqulodda holatlarga tez javob beradi, aholini kambag'allikka tushib qolish xavfidan himoya qiladi	Oldindan shakllangan reyestr va moliyaviy zaxiralar bo'lmasa, tizimning tezkorligi pasayadi	Kambag'allik xavfi yuqori bo'lgan oilalarni oldindan aniqlash hamda proaktiv ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish zarur

\*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi qiyosiy tavsif xorijiy modellarni umumiy jihatdan baholash imkonini beradi. Biroq O'zbekiston sharoitiga mos elementlarni aniqlash uchun ularni aniq

mezonlar asosida saralash zarur. Shu maqsadda quyidagi mezonlar matritsasi ishlab chiqildi.

2-jadval

**Xorijiy modellarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mezonlari matritsasi\***

N <sup>o</sup>	Funksional element	Fiskal yuk	Badal bazasi	Institutsional tayyorlik	Manzillilik	O'zbekiston uchun moslik darajasi
1	Universal bazaviy ijtimoiy kafolatlar	Yuqori	Talab qilinmaydi, asosan soliq tushumlariga tayanadi	Yuqori	Past yoki o'rta	O'rta
2	Majburiy ijtimoiy sug'urta mexanizmi	O'rta	Rasmiy bandlik va ish haqi fondiga bog'liq	O'rta-yuqori	O'rta	O'rta
3	Manzilli pul transfertlari	O'rta	Talab qilinmaydi, davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi	O'rta	Yuqori	Yuqori
4	Yagona ijtimoiy reyestr asosida yordamni tayinlash	Nisbatan past	Talab qilinmaydi	Yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
5	Shartli transfertlar: ta'lim va sog'liq shartlari bilan bog'lash	O'rta	Talab qilinmaydi	O'rta-yuqori	Yuqori	Yuqori
6	Individual "kambag'allikdan chiqarish xaritasi"	O'rta	Talab qilinmaydi	O'rta	Juda yuqori	Yuqori
7	Adaptiv ijtimoiy himoya mexanizmi	O'rta-yuqori	Talab qilinmaydi, zaxira moliyalashtirish manbalari zarur	Yuqori	Yuqori	Yuqori
8	Mobil to'lov kanallari orqali ijtimoiy yordam yetkazish	Past	Talab qilinmaydi	O'rta	Yuqori	Juda yuqori
9	Mikromoliyani kasbga tayyorlash va bandlik dasturlari bilan birlashtirish	O'rta	Mikromoliya institutlari va qaytuvchi resurslarga tayanadi	O'rta	Yuqori	Yuqori
10	Islomiy moliya vositalari: zakot, vaqf, ijtimoiy sukuk	O'rta	Ixtiyoriy, sheriklik va maqsadli jamg'arish manbalariga tayanadi	O'rta-yuqori	O'rta-yuqori	O'rta-yuqori
11	"Bir darcha" asosidagi integratsiyalashgan mahalliy xizmatlar	O'rta	Talab qilinmaydi	Yuqori	Yuqori	Yuqori
12	Natijadorlikka asoslangan monitoring va baholash tizimi	Past-o'rta	Talab qilinmaydi	O'rta-yuqori	Yuqori	Juda yuqori

\*Izo: Baholash sifatii ekspert yondashuviga asoslangan bo'lib, "past", "o'rta", "yuqori" va "juda yuqori" darajalari har bir funksional elementning O'zbekiston budjet imkoniyatlari, mehnat bozori tarkibi, institutsional infratuzilmasi hamda manzilli yordam ko'rsatish salohiyati bilan mosligini ifodalaydi.

Matritsa natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribaning eng mos elementlari yuqori fiskal yuk talab qilmaydigan, mavjud raqamli va mahalliy institutsional infratuzilmaga tez ulanadigan hamda manzillilikni kuchaytiradigan mexanizmlardir. Xususan, yagona ijtimoiy reyestr, mobil to'lov kanallari, manzilli transfertlar, individual "kambag'allikdan


chiqarish xaritasi" va natijadorlikka asoslangan monitoring tizimi yuqori moslik darajasiga ega. Aksincha, universal ijtimoiy kafolatlar va to'liq sug'urta modelini keng miqyosda joriy etish yuqori fiskal yuk hamda rasmiy bandlik bazasining yetarlicha keng bo'lishini talab qiladi. Shu sababli O'zbekiston uchun maqbul yondashuv xorijiy modellarni to'liq ko'chirish emas, balki ularning funksional jihatdan mos

elementlarini bosqichma-bosqich milliy moliyaviy mexanizmga integratsiya qilishdan iborat.

Yuqoridagi tahlil asosida xorijiy tajribani tanlab moslashtirishning bosqichli metodologik modeli shakllantirildi (4-rasm). Model mamlakat tizimini to'liq ko'chirishni emas, balki uning samarali ishlayotgan funksional elementlarini tanlab olishni nazarda tutadi. Jarayon olti bosqichdan iborat: xorijiy moliyaviy-institutsional modellarni o'rganish, davlatlararo taqqoslash mezonlarini qo'llash, funksional elementlarni ajratish, ularni O'zbekiston sharoitiga moslik filtridan o'tkazish, milliy moliyaviy mexanizmga

adaptatsiya qilish va kutilayotgan natijani baholash.

Uchala blokning qiyosiy tahlili bir markaziy xulosaga olib keladi: O'zbekiston uchun yuqori moslik darajasiga ega elementlar yaxlit modellar emas, balki manzillilikni ta'minlovchi va institutsional tayyorlik talabi past bo'lgan funksional vositalardir. Konkret aytganda, manzilli transfertni yagona reyestr bilan bog'lash, individual "kambag'allikdan chiqarish xaritasi", mobil to'lov kanali, mikromoliyani kasb-tayyorlash bilan birlashtirish va islomiy moliya vositalari O'zbekistonning mavjud infratuzilmasi bilan eng oson ulanadi.



**4-rasm. Xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilishning metodologik modeli<sup>1</sup>**

Aksincha, toza universal soliq modeli va resursga bog'liq jamg'arma modeli yuqori fiskal yuk talab qilgani uchun to'liq ko'chirishga yaroqsiz. Shu tariqa gipoteza tasdiqlanadi: samara modelni yaxlit ko'chirishdan emas, balki funksional elementlarni moslik mezonlari

bo'yicha saralab, milliy moliyaviy mexanizmga maqsadli integratsiya qilishdan kelib chiqadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili quyidagi beshta asosiy xulosani shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan,

<sup>1</sup>Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning yagona universal modeli mavjud emas; har bir tizim mamlakatning iqtisodiy salohiyati, budjet imkoniyati, mehnat bozori tuzilmasi va institutsional boshqaruv darajasi asosida shakllangan. Ikkinchidan, samarali moliyaviy mexanizmda moliyalashtirish manbasi, ehtiyojmandlarni aniqlash, ijtimoiy xizmatlar, bandlikka yo'naltirish va natijadorlik monitoringi yagona zanjirda ishlaydi. Uchinchidan, manzillilik darajasi yordam samaradorligining hal qiluvchi omilidir. To'rtinchidan, norasmiy bandlik yuqori bo'lgan sharoitda faqat sug'urta badallariga tayanish qamrovni cheklaydi. Beshinchidan, xalqaro institutlar bilan hamkorlikning natijasi mablag' hajmi bilan emas, balki uning milliy strategiya bilan uyg'unligi bilan o'lchanadi.

Birinchi taklif moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga qaratiladi. Ijtimoiy himoyani faqat davlat budjeti hisobidan emas, balki sug'urta badallari, mikromoliya, mobil moliyaviy xizmatlar va

islomiy moliya vositalari (ijtimoiy sukuk, zakot, vaqf) bilan to'ldirilgan ko'p kanalli mexanizm orqali moliyalashtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi taklif manzillilikni oshirishga oid. Yordamni umumiy nafaqa printsipidan aniq ehtiyojmand guruhlarni toifalovchi differensial qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tkazish, ya'ni yordamni bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash shartlari bilan bog'lash tavsiya etiladi.

Uchinchi taklif "Ijtimoiy reyestr"dan to'liq foydalanishga qaratiladi. Reyestrni bir martalik ro'yxat emas, balki doimiy yangilanadigan yagona raqamli ma'lumotlar bazasiga aylantirish va uni mahalla tizimi, "Inson" markazlari hamda raqamli to'lov infratuzilmasi bilan integratsiya qilish lozim.

To'rtinchi taklif natijadorlik monitoringini kuchaytirishga oid. Ajratilgan mablag'larni aniq ijtimoiy natija, ya'ni bandlik, daromad oshishi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'lovchi mustaqil baholash tizimini joriy etish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. World Bank. (2024). *Poverty, prosperity, and planet report 2024: Pathways out of the polycrisis*. World Bank. DOI: 10.1596/978-1-4648-2123-3.
2. Smith, A. (1776). *An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations*. W. Strahan & T. Cadell.
3. Ricardo, D. (1817). *On the principles of political economy and taxation*. John Murray.
4. Malthus, T. R. (1798). *An essay on the principle of population*. J. Johnson.
5. Keynes, J. M. (1936). *The general theory of employment, interest and money*. Macmillan.
6. Schultz, T. W. (1961). *Investment in human capital*. *The American Economic Review*, 51(1), 1-17.
7. Becker, G. S. (1964). *Human capital: A theoretical and empirical analysis*. Columbia University Press.
8. Sen, A. (1999). *Development as freedom*. Oxford University Press.
9. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2011). *Poor economics: A radical rethinking of the way to fight global poverty*. PublicAffairs.
10. Esping-Andersen, G. (1990). *The three worlds of welfare capitalism*. Princeton University Press.
11. Cichon, M., Scholz, W., van de Meerendonk, A., Hagemeyer, K., Bertranou, F., & Plamondon, P. (2004). *Financing social protection*. International Labour Office.
12. Fiszbein, A., Kanbur, R., & Yemtsov, R. (2014). *Social protection and poverty reduction: Global patterns and some targets*. *World Development*, 61, 167-177.
13. Devereux, S., & Sabates-Wheeler, R. (2004). *Transformative social protection (IDS Working Paper No. 232)*. Institute of Development Studies.
14. Raxmonov, D.A. (2018). *O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Toshkent. 70 b.

15. Davronov, Sh.Z. (2022). *O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati]*. Toshkent. 72 b.
16. Beknazarov, Z.E. (2023). *O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Toshkent. 68 b.
17. Sholdarov, D.A. (2024). *Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashni moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari [Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati]*. Toshkent. 75 b.
18. Nurmuhamedova B.I. *Ijtimoiy himoya sohasini moliyaviy ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari. "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2025-yil, 1-son. URL: <https://zenodo.org/records/15021781>*
19. G'aniev, M. X. (2023). *Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari [Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati]*. Toshkent. 36 b.
20. Vosiqov, U. A. (2025). *Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish [Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati]*. Toshkent. 75 b.
21. Xayitov, Sh. N. (2025). *Kambag'allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati]*. Toshkent. 70 b.
22. International Labour Organization. (2024). *World social protection report 2024-26: Universal social protection for climate action and a just transition*. International Labour Organization. DOI: 10.54394/ZMDK5543.
23. Lønborg, J. H., Viveros, M., Castaneda Aguilar, R. A., Lakner, C., Lara Ibarra, G., & Nguyen, M. C. (2026, March 26). *March 2026 global poverty update from the World Bank: New data and updated poverty numbers*. World Bank Data Blog.